

KICHIK VA O'RTA BIZNESNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA HUDUDLARNI IQTISODIY SALOHİYATIDAN FOYDALANISH

Salimov Baxtiyor Tadjievich

TDIU, “Yashil iqtisodiyot” kafedrası professori, i.f.d.

Salimov Bahodir Baxtiyorovich

TDIU, tadqiqotchi

Salimov Sherzod Baxtiyorovich

TDIU, tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston sharoitida kichik va o'rta biznesda (KO'B) innovatsion faoliyatni rivojlantirishning hududiy iqtisodiy imkoniyatlari, xususiyatlari va innovatsion omillari tahlil etilgan. Hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini ifodalovchi integral indekslar aniqlangan va shu indekslar yordamida hududlar kesimida KO'Bda innovatsion faoliyatni rivojlanishida imitatsion innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, o'rta biznes, iqtisodiy imkoniyat, innovatsiya, imitatsion innovatsiya, mustaqil innovatsiya, indeks, integral indeks, texnologik innovatsiya, innovatsion faoliyat, hududning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi.

Аннотация

В статье анализируются экономические условия, особенности и факторы регионального развития инновационной деятельности малого и среднего бизнеса (МСБ). Определены и проанализированы частные и интегральные индексы, определяющие уровень экономического развития регионов, и возможности инновационного развития МСБ в регионах с использованием имитационной инновации.

Ключевые слова: малый бизнес, средний бизнес, экономические возможности регионов, инновации, имитационные инновации, независимые инновации, инновационная деятельность, индекс, интегральный индекс, технологические инновации, уровень экономического развития региона.

Annotation

The article analyzes regional economic opportunities, characteristics, and innovative factors of the development of innovative activities in small and medium-sized businesses (SMEs) in Uzbekistan. Integrated indices representing the level of economic development of the regions have been determined, and with the help of these indices, the possibilities of using imitative innovations in the development of innovative activity in SMEs in the region have been determined.

Keywords: Small business, medium business, economic opportunity, innovation, imitative innovation, independent innovation, index, integral index, technological innovation, level of economic development of the region, innovative activity.

KIRISH

Kichik va o'rta biznes korxonalari samaradorligini, mahsuloti sifati va raqobatdoshligini oshirishda innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi mahsulot va xizmatlar turini yaratish, yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy qilish KO'B korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Hududlarning moddiy va mehnat resurslarini iqtisodiy faoliyatga jalb qilish, mehnat unumdorligini oshirish hamda korxona faoliyatini boshqarishni takomillashtirish bilan bog'liq zaxira imkoniyatlar innovatsion faoliyat bilan bog'liq. Hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi kichik biznes korxonalarining innovatsion rivojlanishining omili desak bo'ladi. Hududlarning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirishda imitatsion innovatsiyalardan foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARXI

Respublikamizda korxonalarni kichik biznesga ajratishda bitta mezonidan foydalaniladi – tovar aylanmasi mezon, ishchilar soniga chegara yo'q, firmalar ortiqcha ishchi olib firma daromadini o'zgartirishi mumkin. Ikkinchi mezon sifatida ishchilar soni mezon kiritilsa, maqsadga muvofiq (Salimov Sh.B., 2020), sanoat kompleksida kichik innovatsion korxonalarni innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish orqali rivojlantirish sanoat kompleksini innovatsion rivojlantirishda muhim o'rin tutadi (Bulanova Ye.V., Somenkova N.S., Yagunova N.A., 2020; Bokayev B., Issenova A., 2022), kichik va o'rta biznes sektorini innovatsion rivojlantirishda qo'shilgan qiymatga yo'naltirilgan holda rivojlantirish samaradorlikni oshirishga olib keladi (Biryukov V.V., Romanenko, Ploskonosova, 2016). Texnologik innovatsiyalarni innovatsiyada qatnashuvchi subyektlarga qaraganda uch turga bo'lish mumkin: mustaqil innovatsiyalar, imitatsion innovatsiyalar va birgalikda ishlab chiqariladigan innovatsiyalar (Syuy Xueychjuin, 2012). O'zbekistonda yangi tashkil etiladigan kichik biznes korxonalari asosan past texnologik mahsulotlar ishlab chiqaradi (O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati, 2022). Texnologik innovatsiyalar boshqarilishiga qarab texnologik boshqariladigan va bozor tomonidan boshqariladigan turlarga bo'linadi (Gumerova G.I., Shaymiyeva E.Sh., 2012). Rossiya Federatsiyasida 64 ta kichik biznes vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarning 79% texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilgan, 29% tashkiliy innovatsiyalarni, 18% marketing innovatsiyalarini (Titov B., 2018). Innovatsion rivojlanish sharoitida kichik va o'rta biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi (Kookueva V., Tsertseil J., 2022).

METODOLOGIYA

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, indeks, integral indeksni hisoblash formulalari, mahalliy va xorijiy

olimlarning hududlar iqtisodiyotini va kichik biznes korxonalarini hududiy rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida korxonalarni kichik biznes toifalariga ajratishda bitta mezondan foydalaniladi – bu tovar aylanmasi. Tovlar aylanmasi bir milliard so'mgacha bo'lsa, mikrofirma, 10 milliardgacha – kichik korxona va 100 milliardgacha bo'lsa, o'rta korxona hisoblanadi. Bu yerda ishchilar soniga chegara yo'q, firmalar ortiqcha ishchi olib, firma daromadini o'zgartirishi mumkin. Ikkinchi mezon sifatida ishchilar soni mezonini kiritilsa, bizning fikrimizcha, maqsadga muvofiq bo'lardi. Ishchilar soni mezonini belgilashda Yevropa Ittifoqi davlatlari tajribasidan foydalanilsa, o'rinli bo'lardi: 1-10 gacha mikrofirma, 11-50 gacha kichik biznes va 51-250 gacha o'rta biznes[5].

KO'Bning faoliyat sohalari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 1-jadvalda KO'Bning YAIMdagi ulushi 2023-yilda 51,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,4% ga kamaygan, sanoatdagi ulushi esa 26,9 %ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,9% ga oshgan. Umuman, o'sish yana investitsiyalarda (3,5%), qurilishda (3,2%), importda (1,2%) va biroz bandlikda (0,2%) kuzatish mumkin. Qolgan barcha sohalarda kamayish sodir bo'lgan. Eng yuqori kamayish eksportda (-2,2 %) va xizmatlarda (-1,7%) sodir bo'lgan.

Bunga qaramasdan, kichik biznes o'zining katta ulushini qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (94,8 %), qurilishda (74,7 %), chakana savdoda (83,8%), bandlikda (74,1%), investitsiyalarda (51,4%) va YAIMda (51,2%) saqlab qolmoqda. KO'Bda mehnat unumdorligi bandlar soniga ko'ra, kishi boshiga 2023-yilda ishlab chiqarilgan mahsulot 17,2 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu o'tgan yildagi 14,2 mln so'mga nisbatan 121,1% ga o'sgan. Innovatsion mahsulot ishlab chiqarish esa 2023-yilda 1,13 mln so'mga teng bo'lgan bo'lsa, o'tgan yildagi 1,06 mln so'mga nisbatan 106,6% ga o'sgan. Bugungi kunda ham KO'B mamlakatni iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda (1-jadval).

1-jadval

2023-yilda kichik biznesning faoliyat sohalari ko'rsatkichlari, foizda

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2023-yil 2022-yilga nisbatan o'zgarishi
YAIM	51,6	51,2	-0,4
Sanoat	26,0	26,9	0,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	94,8	94,8	uzgarmagan
Investitsiyalar	47,9	51,4	3,5
Qurilish	71,5	74,7	3,2
Chakana savdo	84,7	83,8	-0,9
Xizmatlar	49,4	47,7	-1,7
Eksport	31,2	29,0	-2,2
Import	49,5	50,7	1,2
Bandlik	74,4	74,1	-0,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi ma'lumotlari asosida.

KO‘B korxonalari samaradorligi va raqobatdoshligini oshirishda innovatsion faoliyatni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi mahsulot va xizmatlar turini yaratish, yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy qilish KO‘B korxonalari barqaror rivojlanishining eng muhim omili bo‘lib qolmoqda. Mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, moddiy va mehnat resurslarini iqtisod qilish, mehnat unumdorligini oshirish hamda korxona faoliyatini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish bilan bog‘liq zaxira imkoniyatlar innovatsion faoliyat bilan bog‘liq.

AQSHda olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, KO‘Bda ishchi boshiga olib qaraganda katta biznesga nisbatan 16 barobar ko‘p patentlar yaratiladi [6]. Xitoy Xalq Respublikasida (XXR) patentlarning 85%, texnik yangiliklarning 75% va yangi mahsulotlarning 80% KO‘Bga tegishli [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda sanoat sohasida 18892ta kichik biznes korxonalari tashkil etilgan bo‘lsa, ular asosan past texnologik mahsulotlar ishlab chiqargan [7] — non, qandolat, trikotaj mahsulotlari, ustki buyumlar, mebel va temirdan tayyorlangan mahsulotlar ishlab chiqargan; xizmatlar sohasida oshxonalar, ta‘lim muassasalari va yuk tashish bo‘yicha korxonalar tashkil topgan, savdoda esa asosan dukanlar tashkil topgan. Shu sababli KO‘Bda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning shart-sharoitlarini o‘rganish va innovatsion mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlaridan keng foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berish muhim ahamiyat kasb etadi.

KO‘B korxonalari innovatsion faoliyatni kiritish orqali mahsulot sifatini oshiradi, narxni pasayishiga va eng muhimi, foydani oshirishga imkoniyat yaratadi [1]. Innovatsion faoliyat KO‘B korxonalarining texnik bazasini kuchaytirishni, malakali kadrlarni jalb qilishni, innovatsion infratuzilma elementlaridan samarali foydalanishni va innovatsiyalardan foydalanishni faollashtiradigan boshqaruv tizimini shakllantirishni taqozo qiladi. Odatda sanoat korxonalari texnologik, tashkiliy va marketing innovatsiyalarni joriy qilishga e‘tibor beradi [1].

Mustaqil innovatsiyada ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarni korxona o‘zi amalga oshiradi va bu ishlarni amalga oshirish katta riskka borishni va katta xarajat qilishni talab qiladi. Mustaqil innovatsion faoliyat bilan ko‘p hollarda yuqori iqtisodiy salohiyatga va imkoniyatga ega bo‘lgan yirik kompaniyalar shug‘ullanadi. KO‘B korxonalarida katta investitsiya qo‘yish imkoniyatlari cheklanganligini e‘tiborga olsak, ular innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishda imitatsion innovatsiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Bu risklarni va xarajatlarni kamayishiga olib keladi. Imitatsion innovatsiyalarda korxona to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilg‘or texnologiya va uskunalarni huquqiy asosda rivojlangan davlatlardan sotib oladi va ularni modernizatsiyalash va takomillashtirish ishlarini olib boradi [4]. Bu model texnologik innovatsiyalarni joriy qilishning oddiy usuli hisoblanadi. KO‘B korxonalari innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishda imitatsion innovatsiyalardan foydalanishi o‘z mahsuloti raqobatbardoshligini bosqichma-bosqich oshirishga imkoniyat yaratadi va shu bilan birga, innovatsion texnologik jarayonlarni va birlamchi innovatsiyadan o‘tgan mahsulotlarni takomillashtirish ishlarini yaxshi

yo'lga qo'yishi mumkin, hamda keyinchalik o'zining innovatsion mahsulotini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida KO'B korxonalarining innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishda imitatsion innovatsiyalardan foydalanishiga hududlarning iqtisodiy va innovatsion salohiyatining rivojlanganlik darajasi muhim o'rin tutadi. Rivojlangan hududlarda korxonalar o'rtasida kooperatsion aloqalar yaxshi rivojlangan, mutaxassis kadrlarni jalb etish imkoniyati bor, mavjud oliy ta'lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan aloqalar qilish imkoniyati keng. Hududlar markazlarida ilmiy tadqiqot institutlari, universitetlar, texnoparklar va boshqa innovatsion infratuzilma elementlari mavjud bo'lishi KO'B korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishga yaxshi sharoit yaratadi. Hududning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini quyidagi ko'rsatkichlar belgilaydi:

- Yalpi hududiy mahsulotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi (YAIM) ulushi, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot;
- Sanoat mahsulotining mamlakat sanoat mahsulotidagi ulushi, aholi jon boshiga hududiy sanoat mahsuloti;
- Kichik biznes subyektlari tomonidan hududlar kesimida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti;
- Hududlar kesimida kichik biznes korxonalari tomonidan eksport qilingan tovarlar miqdori;
- Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan KO'Bning innovatsion mahsuloti;
- Hududdagi investitsion faollik darajasi;
- Jalb qilingan xorijiy investitsiyalar. Ishlab chiqarilgan YAIM mahsuloti 2023-yilda joriy narxlarda 1066569.0 mlrd so'mni tashkil etgan, o'tgan yilga nisbatan real o'sish 6% ga teng (2-jadval).

2-jadval

Hududlar kesimida YAHM, (2023-yil)

№	Hududlar	YAHM (mlrd.so'm)	YAIMda hududlar ulushi (% da)	Aholi jon boshiga YAHM (ming.so'm)	Indeks
1.	O'zbekiston Respublikasi YAIM	1066569,0	100%	29291,4	1,0
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	32916,1	3,1	16545,8	0,6
	Viloyatlar				
3.	Andijon	68223,3	6,4	20313,6	0,7
4.	Buxoro	53232,3	5,0	26262,9	0,9
5.	Jizzax	33323,3	3,1	22342,1	0,8
6.	Qashqadaryo	58404,5	5,5	16585,1	0,6
7.	Navoiy	81943,2	7,7	76913,1	2,6
8.	Namangan	47112,6	4,4	15539,5	0,5
9.	Samarqand	74115,3	6,9	17801,6	0,6
10.	Surxondaryo	40909,8	3,8	14395,7	0,5
11.	Sirdaryo	21549,9	2,0	23804,2	0,8
12.	Toshkent viloyati	107918,1	10,1	35703,7	1,2
13.	Farg'ona	65781,0	6,2	16367,9	0,6
14.	Xorazm	36916,5	3,5	18674,9	0,6
15.	Toshkent shaxri	181859,6	17,1	60648,2	2,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi ma'lumotlari asosida.

Aholi jon boshiga YAIM hajmi ko'rsatgichi hududlar bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, (Toshkent shahrini e'tiborga olmaganda) Toshkent viloyatining bu ko'rsatgichi Surxondaryo viloyatinikidan 2,5 barobarga, Namangan viloyatinikidan 2,3 barobarga, va Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlarinikidan 2 barobardan ko'p. Shunga yarasha aholi daromadlari ham keskin farq qiladi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotini qaraganimizda, bu ko'rsatgich ham hududlar kesimida bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, (Toshkent shahri va Navoyi viloyatini e'tiborga olmaganimizda), Andijon viloyatining bu ko'rsatgichi Surxondaryo viloyati ko'rsatgichidan 7,1 barobarga, Namangan viloyatinikidan 3,2 barobarga va Qashqadaryonikidan 2,7 barobarga ko'p. Bu ko'rsatgich ham oqibatda aholi daromadlarining keskin farq qilishiga sabab bo'ladi, deb aytish mumkin.

Hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini ifodalovchi yalpi hududiy mahsulotni hududlar kesimida qaraymiz (3-jadval). Shuni ta'kidlash kerakki, hududlar bo'yicha YAIMlarning yig'indisi miqdori respublika YAIM miqdoridan kam, chunki hududlarga bo'linmaydigan O'zbekiston temir yo'llari, havo yo'llari va boshqa shunga o'xshash ta'minotlar tomonidan yaratilgan mahsulotlar YAIMlarda hisobga olinmagan.

Eng ko'p YAIM Toshkent shahrida ishlab yaratilgan, uning mamlakat YAIMdagi ulushi 17,1 %ga teng, undan keyin Toshkent viloyati – 10,1 %, Navoyi – 7,7 % va Samarqand – 6,9 %. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Xorazm hududlarida bu ko'rsatkich 3,5 %dan oshmaydi. Sirdaryo hududida bu ko'rsatkich juda past bo'lib, u 2% ga teng. Navoyi hududining aholi jon boshiga YAIMi eng yuqori bo'lib, u 76913,1 ming so'mga teng. Indeksi esa o'rtacha respublika indeksidan 2,6 barobarga ko'p. Xuddi shunday Toshkent shahriniki (60648,2 ming so'm), indeks – 2,1ga va Toshkent viloyatiniki (35703,7 ming so'm), indeks – 1,2 barobarga ko'p. Qolgan hududlarning indeks ko'rsatkichlari respublika ko'rsatkichidan ancha past.

2023-yilda jami 655,8 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan (3-jadval), bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 106,0 % ga oshgan. Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush qayta ishlash sanoatiga to'g'ri keladi – 84,4%, uning hajmi 553,3 trln so'mni tashkil etgan. Hududlar kesimida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha Toshkent shahri yetakchi bo'lib, uning mamlakat sanoat mahsulotidagi ulushi 17,1%ga teng. Bu ko'rsatkich Toshkent (16,1%), Navoyi (15,3 %) va Andijon (11,3%) hududlarida ham ancha yuqori. Jizzax (3,3 %), Namangan (3,2 %), Surxondaryo (1,3 %), Sirdaryo (2,3 %) hududlarda bu ko'rsatkich juda past (4-jadval). Bu hududlarda sanoat rivojlanishi orqada qolmoqda va shu sababli bu hududlarda sanoatni rivojlantirish dolzarb hisoblanadi deb qarash mumkin.

Sanoatning rivojlanishi boshqa tarmoqlarning rivojlanishida, ijtimoiy sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Sanoat sohasi innovatsion g'oyalar manbai hisoblanadi, sanoat sohasida innovatsion g'oyalar moddiylashuv bosqichlarini o'taydi, innovatsion mahsulotga aylanadi va tarmoqlar bo'yicha tarqaladi. Sanoat sohasi bo'yicha innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini va eksport imkoniyatini oshiradi, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3-jadval

O'zbekiston respublikasida 2023-yilda hududlar kesimida sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish

№	Hududlar	Hududiy sanoat i/ch. (mlrd. so'm)	Sanoatni hududlar bo'yicha ulushi (% da)	Sanoat aholi jon boshiga (ming.so'm)	Indeks
1.	O'zbekiston Respublikasi	655800,0	100,0	18011,0	1,0
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	18803,1	3,2	9451,4	0,5
	Viloyatlar				
3.	Andijon	73579,3	11,3	21908,0	1,2
4.	Buxoro	31633,9	5,5	15607,3	0,9
5.	Jizzax	19000,6	3,3	12739,6	0,7
6.	Qashqadaryo	28259,6	4,4	8024,9	0,4
7.	Navoiy	101594,8	15,3	95361,7	5,3
8.	Namangan	20826,5	3,2	6869,3	0,4
9.	Samarqand	32676,8	5,3	7848,6	0,5
10.	Surxondaryo	8745,4	1,3	3077,5	0,2
11.	Sirdaryo	15190,7	2,3	16779,6	0,9
12.	Toshkent viloyati	105762,5	16,1	34990,5	2,0
13.	Farg'ona	36661,2	5,5	9122,2	0,5
14.	Xorazm	21167,9	3,4	10707,9	0,6
15.	Toshkent shaxri	123628,3	18,7	41228,9	2,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

O'zbekistonda 2023-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 176523,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan, bu jami sanoat mahsulotining 26,9% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatgich o'tgan yilga nisbatan 122,5% ga oshgan (4-jadval).

Hududlar kesimida jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tarkibida kichik biznesning ulushini ko'rganimizda, eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlarga Farg'ona (49,2%), Surxondaryo (47,3%), Namangan (47,2%), Samarqand (44,6%) viloyatlarini va Toshkent shahrini (37,8%) kiritish mumkin. Eng kam ulush Xorazm (16,3%) va Navoiy (7,7%) viloyatlarida kuzatiladi.

Eng ko'p sanoat mahsuloti ishlab chiqarish Toshkent shahriga (46771,8 mlrd so'm), Toshkent (25110,2 mlrd so'm), Farg'ona (18054,2 mlrd so'm), Andijon (16211,5 mlrd so'm) va Samarqand (14561,2 mlrd so'm) viloyatlariga to'g'ri keladi. Respublika bo'yicha ham hududlar kesimida jami sanoat mahsulotida yirik sanoat korxonalarining ulushi ancha yuqoriligini ko'rish mumkin. Respublikada bu ko'rsatgich 73,1% ga teng bo'lsa, Navoiy viloyatida sanoat mahsulotining 92,3% ni yirik korxonalar ishlab chiqargan.

Indeks ko'rsatgichi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, eng yuqori indeks Toshkent shahrida (respublika bo'yicha o'rtacha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotiga (4796,8 ming so'm) qaraganda 3,2 barobar ko'p ishlab chiqargan), bundan tashqari, respublika indeksidan yuqori indeksga ega hududlarga Toshkent (1,7), Buxoro (1,6), Navoiy (1,5) va Sirdaryo (1,1) viloyatlari to'g'ri keladi. Qolgan viloyatlarda bu indeks respublika indeksidan past, ayniqsa Surxondaryo (0,3), Xorazm (0,4) va Qashqadaryo (0,4) viloyatlarida.

4-jadval

Hududlar kesimida kichik tadirkorlik subyektlari tomonidan 2023-yilda ishlab chiqarilgan sanoat maxsuloti va unda hududlar ulushi

№	Hududlar	Hududiy sanoat i/ch. (mlrd. so'm)	Sanoatni hududlar bo'yicha ulushi (%)	Sanoat aholi jon boshiga (ming.so'm)	Indeks
1.	O'zbekiston Respublikasi	176523,9	26,9	4796,8	1,0
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	5330,3	28,3	2661,6	0,6
	Viloyatlar				
3.	Andijon	16211,5	22,0	4776,0	1,0
4.	Buxoro	9563,2	30,2	7635,7	1,6
5.	Jizzax	4628,6	24,4	3070,6	0,6
6.	Qashqadaryo	6331,2	22,4	1778,1	0,4
7.	Navoiy	7795,0	7,7	7249,1	1,5
8.	Namangan	9831,0	47,2	3206,4	0,7
9.	Samarqand	14561,2	44,6	3460,0	0,7
10.	Surxondaryo	4137,3	47,3	1438,0	0,3
11.	Sirdaryo	4753,5	31,3	5200,8	1,1
12.	Toshkent viloyati	25110,2	23,7	8228,0	1,7
13.	Farg'ona	18054,2	49,2	4445,2	0,9
14.	Xorazm	3445,2	16,3	1726,4	0,4
15.	Toshkent shaxri	46771,8	37,8	15381,4	3,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Rivojlangan davlatlarda KO'B korxonalari ko'p hollarda yirik korxonalarining autsorsing ishlarini bajaradi. Chunki, kelajakda bizda ham KO'Bning yuqori daromadli sohalarini yirik biznes egallaydi. Bunga misol sifatida "AKFA" kompaniyasini keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga 2023-yilda barcha moliyalashtirish manbalaridan 352,1 trln so'm investitsiya asosiy kapitalga o'zlashtirilgan, bu o'tgan yilga nisbatan 122,1% ni tashkil etgan. Jami investitsiyaning 8,1 % i (20,4 trln so'm) respublika byudjeti hisobidan, 0,5 %i (1,6 trln so'm) rekonstruksiya va rivojlanish fondidan, 24,1 %i (84,9 trln so'm) korxonalar mablag'i, 24,3 %i (84,3 trln so'm) to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (Jami investitsiyaning 10 % dan kam bo'lmagan qismini xoijiy investitsiya tashkil etsa bunga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya deyiladi)¹, 6% i (21,2 trln so'm) O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida o'zlashtirilgan xorijiy kreditlar, 9,5% (33,3 trln so'm) aholi mablag'lari, qolganini boshqa manbalar tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi keyingi besh yillikda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, 2019-yilda uning hajmi 195,9 trln so'mga teng bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 352,1 trlnni tashkil etgan, ya'ni 180% ga oshgan.

Hududlarning investitsion faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar 5-jadvalda keltirilgan. Ma'lumki, investitsiya qaysi hududga ko'proq borsa, o'sha hududda

¹ Sotsialno-ekonomicheskoye polojeniye Respubliki O'zbekistan, za yanvar- dekabr 2023 goda str.122

rivojlanish yuqori bo‘ladi. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan jami investitsiyaning eng katta ulushi Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi, uning ulushi – 19,4%, Toshkent viloyati – 12,7%. Undan keyingi yuqori ko‘rsatkichni Buxoro (8,9%), Samarqand (7,6%), va Navoiy (7,4%) hududlarida ko‘ramiz. Past investitsion faollik Qoraqalpog‘iston Respublikasida (3,5%) va Xorazm (3,4%) hududlariga to‘g‘ri keladi.

Aholi jon boshiga eng yuqori indeks ko‘rsatgich Toshkent shahri (o‘rtacha respublika indeksidan 2,3 barobarga ko‘p), Navoiy – 2,5 barobarga, Sirdaryo – 1,8 va Toshkent viloyatiniki – 1,5 barobarga ko‘p. Umuman, 6 ta hududning indeks ko‘rsatgichi respublika indeksidan yuqori bo‘lib, qolgan hududlarda bu ko‘rsatgich respublika indeksidan past.

5-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda hududlar bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

№	Hududlar	Asosiy kap. Investitsiyalar (mlrd.so‘m)	Jamiga nisbatan hududlar ulushi (% da)	Aholi jon boshiga investitsiya (ming. so‘m)	Indeks
1.	O‘zbekiston Respublikasi	352064,1	100	9668,8	1,00
2.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11945,2	3,5	6004,4	0,6
	Viloyatlar				
3.	Andijon	18171,4	5,2	5410,6	0,6
4.	Buxoro	31301,2	8,9	15442,9	1,6
5.	Jizzax	16612,8	4,7	11138,3	1,2
6.	Qashqadaryo	21686,8	6,1	6158,4	0,6
7.	Navoiy	25866,8	7,4	24278,9	2,5
8.	Namangan	20734,5	5,9	6839,0	0,7
9.	Samarqand	26584,6	7,6	6385,3	0,7
10.	Surxondaryo	17956,0	5,1	6318,5	0,7
11.	Sirdaryo	15349,1	4,4	16954,7	1,8
12.	Toshkent viloyati	44449,2	12,7	14705,6	1,5
13.	Farg‘ona	20245,0	5,7	5037,4	0,5
14.	Xorazm	12050,7	3,4	6096,1	0,6
15.	Toshkent shaxri	67902,7	19,4	22644,8	2,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi ma’lumotlari asosida.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi quyidagicha: Mashina, uskuna va inventarlar – 161540,2 mlrd so‘m, jami investitsiyadagi ulushi 45,9%; Qurilish-montaj ishlari – 160440,2 mlrd so‘m, ulushi 45,6%; Boshqa xarajatlar – 30083,7 mlrd so‘m, ulushi 8,5%.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tarkibida mashina va uskunalar ulushining yuqoriligi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni modernizatsiyalash asosida rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi, deb aytish mumkin.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi ko‘p jihatdan ular tomonidan o‘zlashtirilgan investitsiya hajmiga bog‘liq. Jami bo‘lib, 2023-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 118,1 trln so‘mlik investitsiya o‘zlashtirilgan (6-jadval).

Kichik tadbirkorlikning yuqori darajada rivojlanishini Toshkent shahri (23,1 trln investitsiya o‘zlashtirilgan), Buxoro (19,8 trln so‘m), Samarqand va Toshkent

viloyatlarida (17,3 trln so'm) kuzatish mumkin. Eng past darajada rivojlanishni Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,5 trln so'm), Xorazm (5,2 trln so'm) va Qashqadaryo (9,1 trln so'm) viloyatlarida ko'ramiz.

Qolgan viloyatlarda o'zlashtirilgan investitsiya 11,0 dan 13,8 trln so'mgacha. Hududlar kesimida o'rtacha aholi jon boshiga o'zlashtirilgan investitsiya bo'yicha qaraganda, Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Buxoro, Jizzax va Andijon viloyatlari ko'rsatgichi o'rtacha respublika ko'rsatgichidan yuqori, qolgan hududlarniki past.

6-jadval

O'zbekiston respublikasida 2023-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'zlashtirilgan jami investitsiyalar va hududlar bo'yicha ulushi

№	Hududlar	Jami Investitsiyalar (mlrd.so'm)	Hududlardagi ulushi (% da)	Aholi jon boshiga investitsiya (ming.so'm)	Indeks
1.	O'zbekiston Respublikasi	118116,2	51,4	3209,7	1,00
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3454,1	28,9	1724,7	0,5
	Viloyatlar				
3.	Andijon	13087,8	72,0	3855,7	1,2
4.	Buxoro	19790,3	63,2	9682,1	3,0
5.	Jizzax	11677,5	70,3	7746,8	2,4
6.	Qashqadaryo	9083,7	41,9	2551,2	0,8
7.	Navoiy	12461,6	48,2	11589,0	3,6
8.	Namangan	13831,2	66,7	4511,0	1,4
9.	Samarqand	17334,8	65,2	4119,0	1,3
10.	Surxondaryo	10390,8	57,9	3611,6	1,1
11.	Sirdaryo	11350,3	73,9	12418,3	3,9
12.	Toshkent viloyati	17254,1	38,8	5653,7	1,8
13.	Farg'ona	13011,9	64,3	3203,7	1,0
14.	Xorazm	5247,7	43,5	2629,6	0,8
15.	Toshkent shahri	23140,4	34,1	7610,0	2,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi ma'lumotlari asosida.

Kichik biznes korxonalari mahsulotlarining xalqaro raqobatbardoshligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri eksport ko'rsatgichi deb qarash mumkin. Kichik biznes korxonalari tomonidan 2023-yilda 7092,1 mln AQSH dollariga teng bo'lgan mahsulot eksport qilingan, bu jami eksportning 29,0 % ni tashkil etgan (7-jadval). 2023-yildagi eksport hajmi 2022-yilda 6,2 mlrd AQSH dollarga teng bo'lgan eksport hajmiga qaraganda 23,8 % ga oshgan.

Hududlarning jami eksportida eng katta ulushga ega bo'lgan hududlarga Surxondaryo (72,4%), Farg'ona (68,4%) va Xorazm (64,2%) hududlarini kiritish mumkin. Past ulush Qoraqalpog'iston Respublikasiga (27,6%), Toshkent shahri (24,1%), Andijon (29,2%) va Qashqadaryo (22,2%) viloyatlariga to'g'ri keladi, eng past ulushni Navoiy (9%) viloyatida ko'rsatish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, past ulushga ega bo'lgan hududlarda yirik korxonalarning eksporti yuqori, ayniqsa Navoiy viloyatida yirik korxonalarning eksportdagi ulushi 91% ni tashkil etadi.

Aholi jon boshiga eng ko‘p eksport miqdori Toshkent shahri (39,4 ming dollar), Sirdaryo (23,1 ming dollar) va Toshkent viloyatlarida (19,8 ming dollar) kuzatilgan. Eng past eksport miqdori Surxondaryo (5,5 ming dollar), Navoiy (5,4 ming dollar), Jizzax (5,0 ming dollar), Qashqadaryo (2,7 ming dollar) viloyatlariga va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga (4,7 ming dollar) to‘g‘ri keladi.

Eng yuqori eksport indeksi Toshkent shahri (2,0; respublika bo‘yicha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan eksport miqdoriga qaraganda 2 barobarga ko‘p), Sirdaryo (1,2) va Toshkent viloyatlariga (1,0) to‘g‘ri keladi. Eng past indeksni Qoraqalpog‘iston Respublikasida (0,2) va Qashqadaryo (0,1) viloyatida ko‘ramiz.

7-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2023 yilda hududlar kesimida kichik biznes korxonalari tomonidan eksport qilingan tovarlar

№	Hududlar	Jami eksport qilingan tovarlar, ishlar, xizmatlar xajmi (mln.doll.)	hudud bo‘yicha ulushi (% da)	Aholi jon boshiga (ming. Doll.)	Indeks
1.	O‘zbekiston Respublikasi	7092,1	29,0	19,3	1,0
2.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	93,6	27,6	4,7	0,2
	Viloyatlar				
3.	Andijon	338,0	29,2	10,0	0,5
4.	Buxoro	134,3	45,9	6,6	0,3
5.	Jizzax	75,4	43,5	5,0	0,3
6.	Qashqadaryo	94,6	22,2	2,7	0,1
7.	Navoiy	58,5	9,0	5,4	0,3
8.	Namangan	229,1	41,0	7,5	0,4
9.	Samarqand	315,8	42,3	7,5	0,4
10.	Surxondaryo	157,6	72,4	5,5	0,3
11.	Sirdaryo	211,3	63,4	23,1	1,2
12.	Toshkent viloyati	603,8	32,5	19,8	1,0
13.	Farg‘ona	464,3	68,4	11,4	0,6
14.	Xorazm	190,4	64,2	9,5	0,5
15.	Toshkent shahri	1197,6	24,1	39,4	2,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning hududlar bo‘yicha xususiy indeksleri va integral indeksleri quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$A_{ij} = \frac{x_{ij}}{y_j}, \quad X_i = \sum_{j=1}^6 A_{ij}, \quad i = 1 - 15,$$

X_{ij} – i – hududning j – ko‘rsatkichning aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi hajmi;

Y_j – respublika bo‘yicha j – ko‘rsatkichning aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi hajmi;

A_{ij} – i – hududning j – ko‘rsatkich indeksi;

X_i – i – hududning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini ifodalovchi integral indeks.

Respublika bo‘yicha 2022-yilda jami 40451,7 mlrd so‘mlik innovatsion mahsulot ishlab chiqarilgan va u YAIM ning 3,8 % ni tashkil qiladi, bu mahsulot tarkibida 2022-yildan innovatsion ishlarni amalga oshirgan fermer xo‘jaliklari ma‘lumotlari qo‘shilgan (8-jadval). 2022-yilda kichik biznes korxonalari tomonidan

11470,2 mlrd soʻmlik innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqarilgan va bu jami ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlarning 28,4 % ni tashkil etgan.

8-jadval

Oʻzbekiston respublikasida 2022 yilda hududlar kesimida kichik biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar

№	Hududlar	Innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar xajmi (mln.soʻm)	hududlar boʻyicha ulushi (% da)	Aholi jon boshiga (ming. soʻm)	Indeks
1.	Oʻzbekiston Respublikasi	11470102,1	100,0	318,4	1,0
2.	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	132031,7	1,2	66,8	0,2
	Viloyatlar				
3.	Andijon	219825,7	1,9	66,2	0,2
4.	Buxoro	310199,0	2,7	154,3	0,5
5.	Jizzax	61254,0	1,0	41,5	0,1
6.	Qashqadaryo	1232389,2	10,7	353,9	1,1
7.	Navoiy	886711,4	7,7	840,1	2,6
8.	Namangan	151557,7	1,3	50,6	0,2
9.	Samarqand	490841,8	4,3	119,2	0,4
10.	Surxondaryo	218332,0	1,9	77,8	0,2
11.	Sirdaryo	403586,0	3,5	450,1	1,4
12.	Toshkent viloyati	1053361,1	9,2	352,0	1,1
13.	Fargʻona	531099,2	4,6	133,6	0,4
14.	Xorazm	452965,0	3,9	231,3	0,7
15.	Toshkent shaxri	5325948,3	4,6	1801,9	5,6

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi maʼlumotlari asosida tayyorlangan.

Eng koʻp innovatsion mahsulot Toshkent shahri (95325,9 mlrd soʻm), Qashqadaryo (1232,8 mlrd soʻm) va Toshkent (1053,4 mlrd soʻm) viloyatlarida ishlab chiqarilgan. Jami innovatsion mahsulotlar tarkibida ham eng katta ulush yuqoridagi viloyatlarga toʻgʻri keladi va ular mos holda teng 4,6%; 10,7% va 9,2%.

Eng katta, yaʼni respublika indeksidan yuqori indeksga ega hududlarga Toshkent shahri (5,6%), Navoiy (2,7%), Qashqadaryo (1,1%), Sirdaryo (1,1%) va Toshkent viloyatlarini (1,1%) kiritish mumkin. Eng kam ulushga ega hududlar sifatida Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Namangan va Surxondaryo hududlarini qarash mumkin, ularning ulushi respublika indeksidan past boʻlib 0,2 ga teng xolos.

Tahlillar koʻrsatadiki, ishlab chiqarish va ayniqsa sanoat ishlab chiqarish salohiyati yuqori boʻlgan hududlarda innovatsion mahsulot ishlab chiqarish yuqori. Yuqorida aytib oʻtilgan hududlarda innovatsion infratuzilma elementlarini rivojlantirish, ularni xalqaro darajadagi mutaxassis kadrlar bilan taʼminlash, bu hududlarni innovatsion mahsulot ishlab chiqarish boʻyicha yetakchi hududlarga aylantirish mumkin.

Bizning fikrimizcha, Oʻzbekiston ham Yaponiya, Germaniya va Fransiyaning texnoparklar, biznes inkubatorlarda va boshqa innovatsion tashkilotlarida ishlab nafaqaga chiqqan yirik mutaxassislarni Oʻzbekistondagi texnoparklarga jalb qilib,

ulardan foydalanilsa, iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishini yanada tezlashtirish mumkin bo'lardi.

Hududlarning innovatsion imkoniyatlarini turlicha, jumladan Toshkent shahri eng yuqori imkoniyatga ega, chunki jami oliy ta'lim tashkilotlarining 43,0%, nodavlat va xorijiy ta'lim tashkilotlarining 56,1%, 2022-yilda jami ilmiy-tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlarning 54,7 % va bitta innovatsion texnopark Toshkent shahrida joylashgan (9-jadval). Keyingi o'rinlarda Samarqand hududi 15 ta oliy ta'lim tashkiloti, 1 ta nodavlat oliy ta'lim va 13 ta ilmiy-tadqiqot tashkiloti shu hududda joylashgan, texnopark yo'q, Toshkent hududi mos holda 10; 1; 19; 0; Navoiy 4; 2; 6; 2; Qashqadaryo 9; 3; 0; Buxoro 11; 4; 10; 1; Jizzax, Namangan va Surxandaryo hududlarining innovatsion imkoniyatlarini past deb qarash mumkin. Bu yerda hududlarning innovatsion imkoniyatlarini baholashda ularni iqtisodiy rivojlanganlik darajasini e'tiborga olish o'rinlidir.

Toshkent "Yashnabod" innovatsion texnoparkda yaratilgan ayrim innovatsion mahsulotlar quyidagilar: 3D printerlar ishlab chiqarish. Bunday mahsulotlarni (seriyali) ishlab chiqarish O'zbekistonda yo'q. 3D printeri plastik va foto polimerdan tayyorlanadi. Qo'llanilish sohasi: loyiha-matini tashkilotlarida, meditsina, reklama agentliklarida, forfor va yuvilar ishlab chiqarish. Yaratilayotgan korxonaning yillik quvvati 500 dona. SIM-karta, transport kartalari, ijtimoiy kartalar, xalqaro kartalar ishlab chiqarish. Bunday mahsulotlar O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydi. Qo'llaniladigan sohalar: davlat tashkilotlari, moliyaviy tashkilotlar, mobil aloqa operatorlari va aholi. Yaratilayotgan korxona quvvati 20 mln karta. Loyihani taklifchisi OOO "VADES GROVP". Uchuvchisiz uchuvchi apparatlarini ishlab chiqarish va lokalizatsiya qilish. Bunday mahsulot O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydi. Mahsulot iste'molchilari: qishloq xo'jaligi, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, qurilish tashkilotlari, Mudofaa vazirligi. Yaratiladigan korxona quvvati 1200 dona. ADVOT interaktiv robotlarni va uning modifikatsiyalarini ishlab chiqarish. Bu mahsulot O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydi. Qo'llanilish sohasi: banklar, mobil aloqa operatorlari, mehmonxonalar, restoranlar, ko'rgazma markazlari. Yaratiladigan korxonaning quvvati 240 dona yiliga. Loyihani taklifchisi OOO "INTERACTIVE ROBOT SOLUTIONS". Bu innovatsion mahsulotlar imitatsion innovatsiyalar asosida ishlab chiqarilmoqda, deb aytish mumkin.

Hududlarning innovatsion infratuzilma elementlari 9-jadvalda keltirilgan. Mamlakatda 2023-yilda jami 219 ta OTM, shundan 42 tasi nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari, 23 ta texnopark faoliyat yuritgan. Bulardan tashqari, 2022-yilda 262 ta tashkilot ilmiy-tadqiqot ishlarini bajargan. Texnoparklar tarkibida 2023-yilda 1694 ta korxona faoliyat yuritgan. Barcha moliyalashtirish manba'laridan texnoparklarni moliyalashtirish 681,0 mlrd so'mni tashkil etgan. Texnopark tarkibiga kiruvchi korxonalarning foydasi, foyda solig'ini to'lagunga qadar, 3876,9 mlrd so'mga teng bo'lgan, eksporti esa yuklab jo'natilgan sanoat mahsuloti 153,8 mlrdni tashkil etgan.

O'zbekistonda innovatsion infratuzilma elementlari shakllanayotgan bir sharoitda bu ko'rsatgichlarni yomon deb bo'lmaydi. O'zbekistonda innovatsion

salohiyatni oshirish imkoniyatlari katta. Toshkent shahri eng yuqori innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlariga ega: OTMlarning 95 tasi, ya'ni 43,4 foizi, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining 23 tasi, ya'ni 53,5 foizi, texnoparklarning 3 tasi va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlarning 154 tasi, ya'ni 58,8 foizi Toshkent shahrida joylashgan.

Keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati, innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlari mos holda 13; 1; 16; 2; Buxoro 11; 5; 12; 2;

9-jadval

Hududni innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlari

№	Hududlar	Innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlari			
		Oliy ta'lim muassalari	Nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari soni	2022-yilda ilmiy-tadqiqot ishlarni bajargan tashkilotlar soni	Texnoparklar soni
1.	O'zbekiston Respublikasi	219	42	262	23
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	12	-	15	1
	Viloyatlar				
3.	Andijon	10	1	5	1
4.	Buxoro	11	5	12	2
5.	Jizzax	5	1	4	1
6.	Qashqadaryo	11	3	6	1
7.	Navoiy	4	2	7	1
8.	Namangan	9	1	3	1
9.	Samarqand	15	1	13	1
10.	Surxondaryo	8	-	7	1
11.	Sirdaryo	3	-	4	1
12.	Toshkent viloyati	13	1	16	2
13.	Farg'ona	13	2	6	1
14.	Xorazm	8	2	10	6
15.	Toshkent shaxri	95	23	154	3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Samarqand viloyati 15; 1; 13; 1; viloyatlari hisoblanadi. Eng past ko'rsatkichlarni Surxondaryo, Sirdaryo va Namangan viloyatlariga to'g'ri kelgan. Qolgan viloyatlarda bu ko'rsatkichlar o'rta darajada deb qarash mumkin. Innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan hududlar, ayniqsa Toshkent shahri kichik biznes korxonalari innovatsion rivojlanish imkoniyatlari yuqori. Innovatsion infratuzilma elementlari eng yaxshi rivojlangan hududlarga Toshkent shahrini, Toshkent va Navoiy viloyatlarini kiritish mumkin.

Hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini ifodalovchi umumiy integral ko'rsatkichlar 10-jadvalda keltirilgan. Hududlarni iqtisodiy rivojlanganlik darajasini YAHM indeksi, sanoat mahsuloti, asosiy kapitalga investitsiyalar indeksi ifodalaydi. Kichik biznesni rivojlanish darajasini hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti indeksi, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'zlashtirilgan jami investitsiyalar, hududlar kesimida kichik biznes korxonalari tomonidan eksport qilingan tovarlar va hududlar kesimida kichik biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar indeksi ifodalaydi.

10-jadval

Hududlarni iqtisodiy rivojlanganlik darajasini ifodalovchi xususiy va integral ko'rsatkichlar

№	Viloyatlar	YAHM	sanoat mahsuloti	sanoat mahsulotida KO'B ulushi	Asosiy kapitalga investitsiyalar	jami investitsiyalarda KO'B ulushi	Eksportda KO'B ulushi	KO'B tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar	Hududlar kesimida umumiy integral ko'rsatkichlari
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,6	0,5	0,6	0,6	0,5	0,2	0,2	3,2
	Viloyatlar								
2.	Andijon	0,7	1,2	1,0	0,6	1,2	0,5	0,2	5,4
3.	Buxoro	0,9	0,9	1,6	1,6	3,0	0,3	0,5	8,8
4.	Jizzax	0,8	0,7	0,6	1,2	2,4	0,3	0,1	6,1
5.	Qashqadaryo	0,6	0,4	0,4	0,6	0,8	0,1	1,1	4,0
6.	Navoiy	2,6	5,3	1,5	2,5	3,6	0,3	2,6	18,4
7.	Namangan	0,5	0,4	0,7	0,7	1,4	0,4	0,2	4,3
8.	Samarqand	0,6	0,5	0,7	0,7	1,3	0,4	0,4	4,6
9.	Surxondaryo	0,5	0,2	0,3	0,7	1,1	0,3	0,2	3,3
10.	Sirdaryo	0,8	0,9	1,1	1,8	3,9	1,2	1,4	11,1
11.	Toshkent viloyati	1,2	2,0	1,7	1,5	1,8	1,0	1,1	9,2
12.	Farg'ona	0,6	0,5	0,9	0,5	1,0	0,6	0,4	4,5
13.	Xorazm	0,6	0,6	0,4	0,6	0,8	0,5	0,7	4,2
14.	Toshkent shahri	0,6	2,3	3,2	2,3	2,4	2,0	5,6	18,4
	O'zbekiston Respublikasi bo'yicha indeks	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	7,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Hududlar kesimida tadbirkorlik subyektlarini rivojlanish darajasini bildiruvchi indeks ko'rsatkichlariga tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti, eksport qilingan mahsulotlar miqdori va o'zlashtirilgan jami investitsiyalarni kiritish mumkin. Kichik biznes subyektlarining hududlar kesimida innovatsion faoliyat salohiyatini ifodalovchi indeks, bu kichik biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar indeksi hisoblanadi.

Yuqori iqtisodiy salohiyatga ega hududlarga Navoiy viloyati (integral indeksi - 18,4), Toshkent shahri (18,4) va Toshkent viloyatini (9,2) kiritish mumkin. Bu hududlarda innovatsion infratuzilma elementlarini rivojlantirish orqali innovatsion mahsulot, ishlar va xizmatlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish istiqbolli rivojlanish yo'nalishlardan biri deb qarash o'rinli.

Ikkinchi o'rinda integral indeksi o'rtacha respublika integral indeksidan (7,0) yuqori bo'lgan Buxoro (8,8) va Sirdaryo (11,1; indeksning yuqoriligi aholini kamligi hisobidan) viloyatlari va integral indeksi respublika indeksidan past bo'lsa ham rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan Andijon, Farg'ona, Qashqadaryo, Jizzax va Samarqand hududlaridagi istiqbolli sanoat korxonalarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali sanoat

mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish, to'liq qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, natijada shu hududlarning eksport salohiyatini oshirish ham istiqbolli rivojlanish yo'nalishi deb aytish mumkin.

Qolgan hududlarda sanoatni rivojlantirish va KO'Bni qo'llab-quvvatlash yordamida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

KO'Bni innovatsion rivojlanishiga asosiy to'siqlar bo'lib, innovatsion infratuzilmaning yaxshi rivojlanmaganligi, texnoparklar, biznes inkubatorlar, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va ilmiy laboratoriyalarning soni kamligi, ularni zamonaviy uskuna va jihozlar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi, yuqori malakali kadrlarni yetishmasligi va innovatsion biznesning past darajada bo'lishi, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish bo'yicha tajribaning yetishmasligi hisoblanadi.

Hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar hududlar kesimida KO'Bni faoliyat turlari bo'yicha innovatsion mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri deb qarash mumkin. Hududlar tahlili shuni ko'rsatdiki, qaysi hududlarda ushbu ko'rsatkichlar yuqori bo'lsa, shu hududlarda innovatsion mahsulot ishlab chiqarish yuqori. Toshkent shahri, Navoiy, Toshkent, Buxoro hududlarida KO'B korxonalarining innovatsion rivojlanish salohiyati yuqori deb qarash mumkin. Bu hududlarda innovatsion infratuzilma elementlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq, texnoparklar, biznes inkubatorlar, zamonaviy ilmiy laboratoriyalar, transfer texnologiya va boshqa ilmiy markazlarni rivojlantirish va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xorijiy, ayniqsa rivojlangan xorijiy davlatlarda, hususan Yaponiya, Germaniya va Fransiya davlatlarida texnoparklar, biznes inkubatorlar va boshqa yetakchi ilmiy laboratoriya va tashkilotlarda ishlab nafaqaga chiqqan, hali ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni jalb etish, korxonalarni innovatsion rivojlanishiga yaxshi turtki berardi deb o'ylaymiz. Navoyi shahridagi kon-metallurgiya institutida innovatsion infratuzilma elementlari uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlashni kuchaytirish zarur.

O'rta darajada iqtisodiy rivojlangan hududlarda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona hududlarida innovatsion infratuzilma elementlarini barpo etish va ularni kadrlar bilan ta'minlash asosiy masalalardan hisoblanadi.

Past iqtisodiy rivojlangan Surxondaryo, Namangan va Xorazm hududlarida istiqbolli KO'Bni manzilli qo'llab-quvvatlash asosida ishlab chiqarish salohiyatiga qarab jamiyat uchun ustuvor bo'lgan sohalarida maxsus dasturlar asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Toshkent shahrini boshqa barcha hududlarning iqtisodiy va innovatsion rivojlanish markazi deb qarash va Toshkentdagi "Yashnobod" innovatsion texnoparkini ilmiy-texnik va kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali uni "Bosh" texnoparkka aylantirilishi hududlarni innovatsion rivojlanishining bosh omili deb qarash mumkin.

Hududlarda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan, yangi mahsulot va yangi texnologiya joriy qiladigan, eksportbop mahsulot ishlab chiqaradigan KO'B subyektlarini, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktor ishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlarini, davlat grantlarini, davlat tomonidan imtiyozli qarz (loyiha amalga oshirilsa, qarzning ma'lum qismidan kechish), subsidiya berish, kreditni subsidiyalash va boshqa imtiyozlarni boshqa sohalaridagi KO'B subyektlariga nisbatan kuchaytirish maqsadga muvofiq, maslahat berish, qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini (biznes inkubator, texnopark va boshqalar) yaratishda davlat-xususiy sheriklikdan foydalanish.

Mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, KO'B korxonalarida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish, "Imitatsion innovatsiyalardan original innovatsiyalarga" o'tish strategiyasini qo'llash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega, ichki va tashqi bozorlarda talabgir bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'l deb hisoblash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Буланова Е.В., Соменкова Н.С., Ягунова Н.А. Формирование стратегии развития малого инновационного предприятия промышленного комплекса. // Журнал «Вопросы инновационной экономики». Том 9. № 2. Апрель-июнь, 2020.

2. Гумерова Г.И., Шаймиева Э.Ш. Анализ управления технологическими инновациями на промышленных российских предприятиях: источники финансирования, инновационная стратегия. // Актуальные проблемы экономики и права. 2012. № 4 (24). С. 143-150.

3. Инновационное предпринимательство в Китае. // Фундаментальные исследования, 2018. - №10 – с.74-78 (электронный ресурс), <https://www.fundamentalresearch.ru/ru/article/view?id=42283>

4. Сюй Хуэйчжун. Анализ преимущества имитационной инновации. // Гуманитарные и социальные науки. 2012. № 7.

5. Салимов Ш.Б. Ривожланган давлатларда ва Ўзбекистонда тадбиркорлик турлари ва уларни аниқлаш усуллари. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil.

6. Титов Б. Сектор малого и среднего предпринимательства: Россия и Мир. Институт экономики роста им. Столыпина П.А. июль, 2018. Электрон ресурс, <http://stolypin.institute/novosti/sector-malogo-i-srednego-predprinimatelstva-rossiya-i>

7. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2022 ва 2023 йил, Тошкент-2023 й.

8. Bokayev, B., Issenova, A. Қозоғистонда кичик ва ўрта бизнесни ривожлантиришнинг инновацион стратегиялари: COVID-19 даврида давлат сиёсатини ўрганиш. Jurnal nomi: (2022) Innovatsiyalar jurnali, 27 (1), m. yo'q.

9. Biryukov, V.V., Romanenko, E.V., Ploskonosova, V.P. Кичик ва ўрта бизнес секторини инновацион ривожлантиришнинг ҳудудий механизмлари: қийматга йўналтирилган ёндашув. Jurnal: (2016) Indian Journal of Science and Technology, 9

(37), art. no. 102170.

10. Kookueva, V., Tsertseil, J. Инновацион ривожланиш шароитида кичик ва ўрта бизнесни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг иқтисодий ривожланиши. Jurnal nomi: (2022) Innovation Journal, 27 (1), art. no. 2.